



**MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI VA IJODINING O‘ZBEK MILLIY
ADABIYOTIDAGI TUTGAN O‘RNI**

Razakov Bekzod Ismoil o‘g‘li

*Toshkent davlat transport universiteti
Elektrotexnika va kompyuter muhandisligi
fakultet*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqimizning sevimli shoiri, dramaturg, adabiyotshunos olim, tarjimon, pedagog Maqsud Shayxzodaning hayotiy kechinmalari va ijodi keng talqin qilingan. Shu bilan birga maqola Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodiga katta qiziqish uyg‘otadi va uni mukammal o‘rganishga undaydi.

Kalit so‘zlar: dramaturg, tarjimon, pedagog, she‘r, Undoshlarim.

Kirish

O‘zbek adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri, mashur shoir, zabardast dramaturg, adabiyotshunos olim va tarjimon Maqsud Shayxzoda 1908 yil Ozarbayjonning Oqtosh shahrida tavallud topdi. Uning otasi Ma‘sumbek o‘z zamonasining taraqqiyparvar kishilaridan biri bo‘lib shifokorlik kasbidan tashqari, san‘at, adabiyot, tarix va falsafa ilmlari bilan qiziqardi. Ularning oilasida shaharning eng ziyoli kishilari yig‘ilib, munozara va mubohasa qilishardi. Bu adabiy muhit uchun Pushkin va Lermontov, Shekspir va Balzak, Firdavsiy va Xayyom, Nizomiy va Navoiy asarlari begona emas edi. Shunday oilada tarbiya topayotgan bo‘lajak shoir boshlang‘ich va o‘rta ma‘lumotni Oqtoshda olgach, Boku Oliy pedagogika institutida sirtidan o‘qidi. U 1925-yildan boshlab Ozarbayjon Maorif xalq komissarligi yo‘llanmasi bilan Dog‘istonning Darband shahrida muallimlik bilan shug‘ullandi. Shayxzoda Dog‘istonda kechgan qisqa hayoti davomida ham muallim, ham shoir, ham jurnalist, ham tanqidchi sifatida namoyon bo‘ldi. Shayxzoda 1928-yilda Toshkentga kelib, turli gazeta va jurnallar muharririyatlarida ishlaydi.

Muhokama

Uning fikricha “inson ruhini tarbiyalash, nafosat tuyg‘luarini yanada baland darajaga ko‘tarish san‘atning muqaddas vasifasidir “.Yuqorida aytilganidek, avval o‘qituvchi bo‘lib ishlagan Shayxzoda keyinchalik turli gazeta va jurnallar tahririyatida muharrir, 1935-1938-yillarda O‘zbekiston Fanlar qo‘mitasi qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim sifatida faoliyat yuritadi. Shayxzoda 1938-yilda ilmiy xodim lavozimidan bo‘shagach, shu yildan boshlab to umrining oxirigacha Nizomiy nomli TDPI ning o'zbek



mumtoz adabiyoti kefedrasida dotsent vazifasida ishlaydi, u yerda adabiyotshunos va adabiy tanqidchi sifatida faoliyat olib bordi.

1950-yillarning boshlarida “xalq dushmani” sifatida 25 yilga qamalgan shoir Stalin vafot etgach oqlanadi. Maqsud Shayxzoda 1967-yil 19-fevralda og‘ir xastalik natijasida olamdan o‘tdi. Uning qabri Forobiy qabristonida joylashgan. Vafotidan so‘ng Shayxzodaning 6 jilddan iborat bo‘lgan asarlari nashr etilgan. Adibning qilgan ijodi va xizmatlari yuksak baholanib, 2001-yilda “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlangan.

Natija

Uning dastlabki asarlari 1929-yildan boshlab, e‘lon qilingan. Maqsud Shayxzoda ilmiy izlanishlar va tarjimonlik bilan ham shug‘ullangan. U Sh. Rustaveli, V.Shekspir, M. Lermontov, Fuzuliy, A.S.Pushkin, Nizomiy, Ezop, Gyote, Mirza Fatali Oxundov, Esxil, Bayron, Nekrasov, Mayakovskiy, Nozim Hikmat, Shevchenko kabi bir qator adiblar ijodidan tarjima ishlarini olib borgan. Muqimiy, Furqat, Bobur, G‘.G‘ulom, H.Olimjon, Nizomiy, Oybek, Fozil shoir, Sh.Rustaveli, Pushkin, Ostrovskiy, Chexov, Nekrasov, Shevchenko kabi adiblar hayotiga bag‘ishlangan asarlar yozgan, olim sifatida esa Alisher Navoiy she‘riyati haqida chuqur izlanish qilib, ilmiy tadqiqotlar yaratgan.

“O‘n she‘r” (1932), “Undoshlarim” (1933), “Uchinchi kitob” (1934), “Jumhuriyat” (1935) to‘plamlarining nashr etilishi adabiyotga o‘ziga xos ovozi shoir kirib kelayotganidan darak berdi.

Uning “Kurash nechun”, “Jang va qo‘shiq”, “Kapitan Gastello”, “Ko‘ngil deydiki...” she‘riy to‘plamlari, “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy dramasi kabi asarlari urush yillarida yozilgan bo‘lib, jangchilarning qaxramonligi, vatanga muhabbati, front ortidagi insonlarning sadoqatli mehnati tasvirlangan.

“O‘n besh yilning daftari”, “Olqishlarim”, “Zamon torlari”, “Shu‘la”, “Chorak asr devoni” kabi she‘riy to‘plamlarida, urushdan keyingi yillarda qatag‘on bo‘lgan shoir, totuvlik uchun kurash, Vatanga fidokorlikni kuyladi.

1958 yili adibning “Toshkentnoma” lirik dostoni yaratildi. Ushbu doston qadimiy va ayni chog‘da zamonaviy Toshkent shahriga bag‘ishlangan. Shayxzoda nafaqat lirik shoir, balki, iste‘dodli dramaturg hamdir. 1960-yilda yozgan “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida buyuk o‘zbek olimi, munajjimi va ma‘rifatparvar hukmdori obrazini yaratdi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Maqsud Shayxzoda Ozbarbayjon va O‘zbek xalq adabiyotining eng zabardast shoir va adiblaridan hisoblanadi. Mana necha yildirki ijodiy asarlari so‘ngan emas va qalbimizning tub tubidan joy olgan. 1-Prezidentimiz I.A. Karimov tashabbusi bilan Maqsud Shayxzoda nomiga medal, order, va stipendiyalar joriy etilgan. Uning asarlari va hayotiga qiziquvchi yoshlarimiz juda ko‘p va bundan keyin ham kamaymaydi. Maqsud



Shayxzodaning ijodi shu qadar qiziqki u faqat bir yo‘nalishda emas balki turli xil yo‘nalishlarda juda qiziq faoliyat ko‘rsatgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy tanqidiy ocherk, Toshkent, 1969.
2. G‘afurov I. Maksud Shayxzoda ijodiyoti, Toshkent, 1975.
3. Yusuf Shomansur. Shayxzoda — bunyodkor shoir, Toshkent, 1972.
4. Shayxzoda Maksud. Shoir qalbi dunyoni tinglar (Tanlangan asarlar) // Toshkent, „Nihol“, 2008.